



**O‘QUVCHILARNING ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI
DARSLARIDA NUTQIY KOMPETENSIYALARINI
TAKOMILLASHTIRISH USULLARI**

Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti (PhD)

R.Lutfedinova

Namangan davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti

M.Usmonjonova

O‘quvchilarning kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirish ona tili ta’limining asosiy vazifalaridan biri bo‘lib, u tilning o‘ziga xos xususiyatlari, ma’no tovlanishlari va badiiy ifodaliligi bilan ajralib turadi. Og‘zaki nutq adabiy tilning orfoepik; yozma shakli esa orfografiya va uslub kabi me’yorlariga mos holda shakllantirishni taqozo etadi. Nutq madaniyatini tarkib toptirishda adabiy til me’yorlariga amal qilinishi, xususan, muayyan tildagi so‘zlar, ularning qurilishi, yasalishi va o‘zgartirish modellari, so‘z birikmalari hamda gapni nutqda to‘g‘ri qo‘llash qoidalarini o‘zlashtirish tushuniladi.

Ona tili ta’limida tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozish kabi nutqiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘quvchilarda nutqiy ko‘nikma hosil qilish maqsadi orqali tegishli mashqlarni og‘zaki va yozma shaklda o‘tkazish nazarda tutiladi. Bunday mashqlar amaliyot bilan bog‘liq materiallar asosida olib borilishi zarur. Amalda sof grammatik mashqlarga nisbatan nutqiy mashqlarga ko‘proq e’tibor qaratish, ya’ni bolalarga fikrini ravon, izchil, aniq, tushunarli va xatosiz ifodalash yo‘l-yo‘riqlarini o‘rgatish orqali mavjud ko‘nikmalar malakaga aylanishiga erishilishi belgilangan.

Nutqning ravon va aniq tarkib topishi uchun bolalarni kichikligidan atrofida gilar nutqini diqqat bilan tinglashga, shu asosda nutqiy tajriba hosil qilishga, matn yaratish yoki yozma ishlarni didaktik o‘yinlar shaklida tashkil etib, o‘zaro tekshirish yo‘llarini qiziqarli tarzda uyushtirish, “o‘qituvchi”lik vazifasini ularning o‘ziga yuklash to‘g‘ri nutqiy muhit yaratishda alohida o‘rin tutishini



ta'kidlash joiz. Shuningdek, yozma nutqni shakllantirishda o'qituvchining kasbiy sifatleri, o'zining nutqi, topshiriqlarning aniq va tushunarli bo'lishi, didaktik o'yinlardan o'rganilayotgan mavzuga mosining qo'llanilishi, o'quv materialining muayyan maqsad asosida va jiddiy o'rganilishi katta ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish va ularning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. O'quvchilarning o'z fikrini aniq va mantiqiy ifodalash qobiliyatini shakllantirish nafaqat ularning akademik yutuqlariga, balki ijtimoiy hayotdagi muvaffaqiyatlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'qish savodxonligi darslari orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini takomillashtirishning samarali usullari va metodlarini tahlil qilamiz.

Nutqiy kompetensiyani rivojlantirish zarurati. Nutqiy kompetensiya o'quvchilarning fikrlarini mantiqiy tarzda bayon eta olish, og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish hamda matnni to'g'ri tushunish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Ushbu kompetensiyani rivojlantirish quyidagi jihatlariga bog'liq:

- O'qish texnikasi – o'quvchining matnni aniq, ravon va tushunarli o'qish qobiliyati.
- Tushunish va talqin qilish – o'qilgan matnni chuqur anglash va tahlil qilish malakasi.
- Muloqot ko'nikmalari – o'z fikrlarini ifodalash, bahslashish va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyati.
- Ijodiy yondashuv – o'qilgan material asosida yangi fikrlar yaratish va muhokama qilish ko'nikmasi.

O'qish savodxonligi darslarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish usullari:

1. Muammoli savollar va bahslar – O'quvchilarga o'qilgan matn bo'yicha muammoli savollar berish va ular orasida bahs tashkil etish orqali ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirish mumkin.



2. Roliy o‘yinlar va dialoglar – Dars jarayonida o‘quvchilar turli rollarni ijro etishlari, hikoya yoki asarlardan parchalarga tayangan holda sahna ko‘rinishlari yaratishlari tavsiya etiladi.

3. Matnni qayta hikoya qilish – O‘quvchilar o‘qilgan matn mazmunini o‘z so‘zlari bilan qayta bayon qilish orqali ularning tahlil qilish qobiliyatlari shakllanadi.

4. Tahliliy yozma ishlar – Insho, esselar yozish orqali o‘quvchilar nafaqat o‘z fikrlarini mantiqiy bayon etishni, balki yozma nutq ko‘nikmalarini ham rivojlantiradilar.

5. Audio va video materiallar bilan ishlash – O‘quvchilarga audiokitoblar tinglash va videoroliklarni tomosha qilish orqali tinglab tushunish va so‘z boyligini oshirish imkoniyati yaratiladi.

O‘quvchilarning kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirish ikki yo‘nalishda amalga oshirilishi mumkin: nutqni rivojlantirish; muloqot odobini takomillashtirish.

“Kommunikativ kompetentsiya”ni o‘rganish jarayonida sinergetik yondashuvning o‘ziga xosligi shundaki, unda o‘zaro bog‘liqlik va hamkorlik asosida masalaga munosabat bildiriladi. Chunki bu tushuncha bugungi kunga kelib turlicha qarashlar, qarama–qarshi fikrlar, g‘oyalar ta’sirida qolayotganini guvohi bo‘lib turibmiz. Tartibga kelish uchun esa, albatta, bu bosqichlarni bosib o‘tish tabiiy holat hisoblanadi. Bu jarayonda sinergetik metodologiyaga xos bo‘lgan nochiziqli tafakkur tarzi samarali natijaga olib keladi.

Nutqni rivojlantirish uchun 1-sinf o‘quvchilariga gap tuzish ustida ishlashga doir topshiriqlar taklif etildi: “Nuqtalarni qo‘ying”, “Tushirib qoldirilgan so‘zlarni qo‘shing”, “Nima haqida o‘qiganingizni aytib bering”, “So‘zlar to‘plamidan mavzuga doir gaplar tuzing”, “Rasmlardan jumlar tuzing”.

Nutqni rivojlantirish bo‘yicha ishlar nafaqat darslar, balki sinfdan tashqari mashg‘ulotlar (“Men va mening oilam” sinf soatlari, “Bu notanish so‘zlar” va



boshqalar) orqali ham amalga oshiriladi. O'qituvchining darsdagi asosiy vazifasi og'zaki va yozma nutqning savodxonligi, uning to'g'riligi ustida ishlash bilan bir qatorda o'quvchilarda o'z fikrini erkin, to'liq, mantiqiy, o'z fikrini ko'rsatishdan qo'rqmasdan ifoda faoliyat turlarining asosidir. Kommunikativ kompetentsiya bugungi kunda ta'lim va axborotni idrok etish qobiliyatlari bilan chambarchas bog'liq holda shakllanishi va rivojlanishi kerak. Og'zaki va yozma nutqda muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish nafaqat maqsad, balki har qanday fan bo'yicha bilim va ko'nikmalarini muvaffaqiyatli o'zlashtirish vositasi sifatida qaralishi kerak. Olima O. Musurmonova "Kompetentlik deganda, ko'pincha shaxsning faoliyat yuritishga umumiy qobiliyati va uning kasbiy tayyogarliligiga namoyon bo'luvchi bilim va tajribalarga asoslangan integrallashgan sifatlar nazarda tutiladi. Demak, kompetentsiya va kompetentlik tushunchalari bilim, ko'nikma va malaka tushunchalaridan kengroq, chunki ular shaxsning yo'naltirilganligi, muammoni his qila olishi, egiluvchan fikrlashga ega bo'lishi kabi sifatlarni o'z ichiga oladi.

"Kompetentlik" tushunchasi nafaqat aniq bilim va ko'nikmalar, balki aniq strategiya, mos hissiyot va munosabat, shuningdek, butun bir tizimni boshqarish mexanizmi mavjud ekanligi talab etiladigan murakkab amaliy masalalarni hal etish bilan bog'liq"¹, –deb ta'kidlaydi.

Demak, kompetentsiya va kompetentlik o'rtasida sezilarli darajada aniq farq bor va bu biz uchun muhim, "kompetentlik" tushunchasi "kompetentsiya" tushunchasiga qaraganda subyektiv-shaxsiy omilning yuqori darajada namoyon bo'lishidan darak beradi.

"Boshlang'ich sinflarning "Ona tili" va "O'qish" darsliklaridagi ko'pchilik badiiy matnlardagi emotsionallik, tasviriylik yetishmasligi, matnlar tahlilida ularning mazmunini boyituvchi birliklar, iboralar, birikmalar, tasviriy vositalar ustida ishlanmasligi natijasida o'quvchilar mazkur matnlarning leksik tarkibi va

¹ Musurmonova O. Pedagogik texnologiya–ta'lim samaradorligi omili: Monografiya. – T; 2020. – B.45-46.



grammatik qurilishini quruq yodlab olishi va aynan qayta tiklashining sababi, avvalo, lug‘at zaxirasining cheklanganligi bilan izohlanadi”. Shu nuqtai nazardan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olib, turli didaktik o‘yinlardan foydalanish ko‘proq samara beradi. Jumladan, “Mosini top” grafik organayzerini qo‘llashda dastlab o‘quvchilarga har bir badda mavjud tasviriy-ifodaviy vositalar bo‘yicha ta’riflar yozilgan jadvallar tarqatiladi. O‘quvchilar ta’riflarni o‘qib, ularning qaysi tasviriy vositaga tegishli ekanligini aniqlaydilar. So‘ngra jadvaldagi bo‘sh qoldirilgan katakchalarga she’rdagi tasviriy vositalar va ularning turini qayd etadilar. Masalan, mayin shamollar, yelpib-elpib anhor yuzini, soyabon tollar va h.k. Bunda, albatta, o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi ijodiy hamkorlikka tayaniladi.

O‘qish darslarida olib boriladigan badiiy asar matni ustidagi ishlar nutq o‘stirishga qaratilgan omillardan biridir. Binobarin, matn mazmuni, qahramonlar xatti-haraktlariga munosabat bildirish, murakkab vaziyatlar yechimini topish tafakkur mahsuli bo‘lib, nutq orqali yuzaga chiqadi. Matnning badiiy-estetik ahamiyati, g‘oyaviy-badiiy mukammalligi, muallif mahoratini tushunish, qahramonlar xarakter xususiyatlarini baholay olish bevosita mazkur bilish jarayonlari rivoji bilan uyg‘unlikda amalga oshadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘qish savodxonligi darslarida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, mantiqiy va ijodiy yondashuvi hamda muloqot qobiliyatining shakllanishiga xizmat qiladi. Zamonaviy ta’lim metodlari va innovatsion yondashuvlar orqali ushbu jarayonni yanada samarali tashkil etish mumkin. Shu sababli, o‘qituvchilar dars jarayonida interfaol usullardan foydalanishlari hamda o‘quvchilarning faolligini oshirishga qaratilgan metodlarni joriy etishlari lozim. Bu esa o‘quvchilarning nafaqat ta’lim jarayonidagi, balki kelajakdagi muvaffaqiyatlarida ham muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nurmanov A.T. Talabalarni samarali muloqot texnologiyasi va texnikasiga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari (auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar misolida). 13.00.01–Pedagogika nazariyasi va tarixi. Ta'limda menejment (pedagogika fanlari). doktorlik dissertatsiya avtoreferati. – T; 2017. – B.16.
2. Bulbekbaeva Sh.B. Ona tilini davlat tili bilan kommunikativ kognitiv asosda qiyosiy o'rgatish (ta'lim qozoq tilida olib boriladigan maktablar misolida) 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (qozoq tili) pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand; 2019. – B.11.
3. Musurmonova O. Pedagogik texnologiya–ta'lim samaradorligi omili: Monografiya. – T; 2020. – B.45-46.